

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023- yilda Namangan viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 47 112,6 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2022- yil bilan taqqoslaganda 5,4 % ga o'sdi.


YAHM deflyator indeksi 2022- yil narxlariga nisbatan 110,2 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Namangan viloyatining qo'shgan hissasi 4,4 % ga yetdi.

## 2023- yilda Namangan viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot



- YAHM o'sish sur'ati
- YAHM hajmi
- YAHM deflyator indeksi
- YAIMga qo'shgan hissasi



## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

	Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilga nisbatan % da
	2022- yil	2023- yil	
<b>I. YAHM, jami</b>	<b>40 565,1</b>	<b>47 112,6</b>	<b>105,4</b>
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	39 346,8	46 104,2	105,3
mahsulotlarga sof soliqlar	1 218,3	1 008,4	109,4
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>39 346,8</b>	<b>46 104,2</b>	<b>105,3</b>
<b>qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</b>	<b>15 927,3</b>	<b>18 921,1</b>	<b>104,4</b>
<b>sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>8 790,0</b>	<b>10 182,5</b>	<b>107,1</b>
sanoat	5 952,4	6 991,9	107,2
qurilish	2 837,6	3 190,6	107,1
<b>xizmatlar</b>	<b>14 629,5</b>	<b>17 000,6</b>	<b>105,1</b>
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	2 877,3	3 477,9	109,1
tashish va saqlash, axborot va aloqa	2 013,2	2 553,0	115,1
boshqa xizmat tarmoqlari	9 739,0	10 969,7	101,9



Quyida keltirilgan infografikadan ko'rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 15 539,5 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 3,1 % ga yuqoridir.

## Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi (ming so'mda)



## Aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o'sish sur'atlari (o'tgan yilga nisbatan % hisobida)



## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

	2022- yil	2023- yil
<b>I. YAHM, jami</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	97,0	97,9
mahsulotlarga sof soliqlar	3,0	2,1
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<b>qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</b>	<b>40,5</b>	<b>41,0</b>
<b>sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>22,3</b>	<b>22,1</b>
sanoat	15,1	15,2
qurilish	7,2	6,9
<b>xizmatlar</b>	<b>37,2</b>	<b>36,9</b>
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	7,3	7,5
tashish va saqlash, axborot va aloqa	5,1	5,5
boshqa xizmat tarmoqlari	24,8	23,9




2023- yilda hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 97,9 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 2,1 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi 41,0% ni, sanoat tarmog‘i 15,2 % ni, qurilish 6,9 % ni va xizmatlar sohasi 36,9 % ni tashkil qildi.

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

2022- yil



2023- yil



● Yalpi qo‘shilgan qiymat


● Mahsulotlarga sof soliqlar



YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 1,7 f.p. (2022- yilda – 2,0 f.p.), sanoat tarmog'i – 1,1 f.p. (2022- yilda – 1,3 f.p.), qurilish tarmog'i – 0,5 f.p. (2022- yilda – 0,6 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 1,8 f.p. (2022- yilda – 2,4 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi.


Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,3 f.p. (2022- yilda – 0,3 f.p.)ga ko'paydi.

## 2023- yil uchun YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)




2023-yilda YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 104,4 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 41,0 %), sanoatda – 107,2 % (15,2 %), qurilishda – 107,1 % (6,9 %), xizmatlar sohasida – 105,1 % ni (36,9 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 109,1 % (7,5 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 115,1 % (5,5 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 101,9 % dan (23,9 %) iborat bo'ldi.

## YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilga nisbatan % da)



2023- yilda YAHM deflyatori indeksi 2022-yildagi narxlarga nisbatan 110,2 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 113,8 % va xizmatlarda – 110,5 % qayd etildi.

## YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilga nisbatan % da)



2023- yilda kichik tadbirkorlik 33 542,1 mlrd. soʻmni tashkil etdi (2022- yilda – 28 478,6 mlrd. soʻm). YAHMdagi ulushi 72,8 % ni (2022- yilda – 72,4 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining oʻtgan yilga nisbatan oʻsishi yirik korxonalar ulushining kamayishi bilan bogʻliq.

## Kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan %da)

Hajmi, mlrd.soʻm

Ulushi, % da

2022- yil

28 478,6

72,4 %

2023- yil

33 542,1

72,8 %

